

9-sinf O'zbekiston tarixi

7-dars: Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi.

Darsning maqsadlari:

1. Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarga Turkiston o'lkasida mustamlaka boshqaruvining o'rnatilishi, Turkiston general-gubernatorining vakolatlari, 1867 yilda markazi Toshkent shahri bo'lgan Turkiston general-gubernatorligi va Turkiston harbiy okrugi tashkil qilinishi, yangi ma'muriy hududlarning tashkil qilinishi, 1867 yilgi «Nizom» loyihasi haqida tushunchalar berish.

Tarixiy davrlar va yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi;

Mazkur davrni o'rganish orqali o'quvchilar tarix fanining o'rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini, tarixiy shaxslar haqida, tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi hamda mazkur davrga oid tarixiy joylarni tarixiy xaritadan ko'rsata oladi, ma'lumot bera oladi.

2. Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarni yangi bilimlar egallashga va tartib-intizomga doimo rioya etishga yo'naltirish hamda ularda ona Vatanga nisbatan muhabbat tuyg'ularini shakllantirish;

Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;

O'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish;

3. Rivojlantiruvchi maqsad:

Mavjud tarix faniga oida axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;

O'quvchilarda umumlashma xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantirish.

O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Dars turi:	Yangi bilim beruvchi, bilimlarni shakllantiruvchi
Dars metodi:	"Interfaol metodlar", "Guruhlarda ishlash", Test topshiriqlari
Dars jihozi:	darslik, xarita, ko'rgazmali va didaktik materiallar, proyektor, AKT

DARSNING BLOK CHIZMASI:

No	DARS BOSQICHLARI:	Bajariladigan ish mazmuni	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni darsga tayyorlash, kun tarixi aytiladi	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni takrorlash	Takrorlash, mustahkamlash, yangi mavzu bilan bog'lash	8 daqiqa
3	Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish	Yangi mavzuni tushuntirish	14 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
5	Dars yakuni va baholash	G'olib guruhni aniqlash, rag'batlantirish. Darsning so'ngi xulosasini chiqarish	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	O'qituvchi tomonidan uyga vazifa e'lon qilinadi va keyingi mavzuga tayyorlanib kelish yo'nalishini aytib o'tadi	2 daqiqa



Yangi dars mazmunining tayanch tushunchalari, atamalari, tarixiy sana va nomlar:

Turkiston general-gubernatorligi - 1867, Turkiston harbiy okrugi - 1867, okrug, gubernator - 1847-yil, Aleksandr II, fon Kaufman- 1867-1881, Sirdaryo viloyati.



DARSNING BO'RISHI

I. Tashkiliy qism:

O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish.

O'qituvchi tomonidan bugungi kunda tavallud topgan mashhur shaxslar, yurtimiz va jahon maydonida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlar, bayramlar haqida **qisqacha** ma'lumot berib o'tiladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash:

“Guruhlarda ishlash”



O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruh uyga berilgan mavzuga oid atamalardan o'z guruhlariga nom qo'yib olishadi hamda guruhga qo'yilgan nomga qisqacha ta'rif berishadi.

O'tilgan mavzu quyidagi savol va topshiriqlar yordamida mustahkamlanadi:

1-topshiriq Test topshiriqlari bajariladi (bunda 5 ta javobi belgilanadigan va 3 ta javobi yoziladigan test beriladi).

1. Oqmachit qal'asi ruslar tomonidan bosib olingach qanday nomlandi?

- A) Qizil o'rda B) Vemiy C) Chernyayevka D) Perovskiy forti *

2. XIX asrda Toshkentning nechta darvozasi bo'lgan?

- A) 20 ta B) 12 ta * C) 8 D) 11

3. Verniy qal'asi hozirgi qaysi shaharda joylashgan edi?

- A) Ashxobod B) Orenburg C) Janbul D) Almati*

4. 1865-1868-yillarda

- A) Rossiya O'rta Osiyoda uzluksiz urush olib bordi B) O'rta Osiyoda yirik qo'zg'olonlar davri bo'ldi

C) Rossiyaning O'rta Osiyoga bosqinining ikkinchi davri bo'ldi*

D) Rossiyaning O'rta Osiyoga bosqinining uchinchi davri bo'ldi

1. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo hududlarining bosib olinish ketma-ketligi to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang?

A) Avliyoota, Turkiston, Chimkent, Toshkent * B) Oqmachit, Turkiston, Toshkent, Xo'jand

C) Chimkent, Oqmachit, Jizzax, Toshkent D) Turkiston, Chimkent, Pishpak, Toshkent

2. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo chegaralaridagi dastlabki istehkomi nechanchi yilda vujudga keldi?

_____ Javob: (1718-yil)

7.1843-yil Xivaga kelgan ingliz diplomatiyasi vakili kim edi?

Javob: _____ (kapitan J. Ebbot)

8. Toshkentni mudofaa qilishda ishtirok etgan Qo'qon xonligi lashkarboshisini aniqlang.

Javob: _____ (Alimqul)

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish:

Bu vazifa quyidagi reja asosida amalga oshiriladi:

- **Turkiston o'lkasida mustamlaka boshqaruvining o'rnatilishi;**
- **Yangi ma'muriy hududlarning tashkil qilinishi.**

Turkiston o'lkasida mustamlaka boshqaruvining o'rnatilishi

O'rta Osiyoni o'z mustamlakasiga aylantirish maqsadida podsho hukumatining olib borgan harbiy istilochilik yurishlari natijasida uning katta hududlari bosib olindi. Yo'qotishlar va talafotlarga qaramay, imperator Aleksandr II ning buyrug'i bilan navbatdagi harbiy rejalarni amalga oshirish davom ettirildi.

1865-yilda tashkil qilingan Turkiston viloyati O'rta Osiyodagi harbiy harakatlarni olib borishda harbiy markaz rolini bajardi. Navbatdagi vazifa bosib olingan hududlarda podsho hukumati hukmronligini mustahkamlash va ma'muriy hududiy birliklarni tashkil qilishdan iborat edi. Mazkur maq-sadlarni amalga oshirish uchun bosib olingan joylarni o'z ichiga oluvchi ma'muriy-boshqaruv hudud, ya'ni alohida general-gubernatorlik tashkil etishga kirishildi. Buning sababi O'rta Osiyoning Orenburg general-gubernatorligidan uzoqda joylashganligi bo'lsa, boshqa yana bir sababi bu kelgusida bosib olinadigan yerlarni ham birlashtirish bo'lgan. Bu hududlarning imperiya tarkibida yana bitta general-gubernatorlik tashkil qilish uchun aholisi va hududi to'g'ri kelgan. Shu bilan birga O'rta Osiyoda alohida general-gubernatorlikni tashkil qilish orqali uning geografik xususiyatlari, iqtisodi, tabiiy boyliklari, mineral resurslarini imperiya manfaatlariga har tomonlama moslashtirish edi.

1867-yilda bosib olingan hududlarni o'z ichiga oluvchi Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilindi va Turkiston harbiy okrugi tuzildi. 1847-yildan boshlab harbiy istilochilik yurishlarida ishtirok etgan barcha harbiy qismlar



uning tarkibiga kiritildi. Bu davrda Turkiston harbiy okrugidagi harbiylar soni 40 ming kishidan iborat bo'lgan. Toshkent shahri general-gubernatorlikning markazi qilib belgilandi. U qulay geografik makonda joylashgan bo'lib, harbiy, siyosiy, strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlarga ega edi.

Turkiston general-gubernatori o'lkada joylashgan harbiy qo'shinlar qo'mondoni, Yettisuv kazaklari qismi qo'mondoni va shu bilan birga bosh sudya ham hisoblangan. Turkiston general-gubernatorligiga 1867-yil Rossiya imperatori farmoniga ko'ra general-adyutant Konstantin Petrovich fon Kaufman (1867-1881) tayinlandi. U bir paytning o'zida Turkiston harbiy okrugining qo'mondoni ham edi.

Yangi ma'muriy hududlarning tashkil qilinishi

Turkiston general-gubernatori Turkiston viloyati va Semipalatinsk viloyatining janubiy qismini ham o'z ichiga oldi. Dastlab Turkiston general-gubernatorligi ma'muriy jihatdan ikkita viloyat: Sirdaryo (markazi -Toshkent) va Yettisuv (markazi — Verniy) viloyatlariga bo'lingan. Sirdaryo viloyatining hududiga, asosan, 1865-yilda tashkil qilingan Turkiston viloyatiga tegishli bo'lgan yerlar va Qo'qon xonligining bosib olingan shimoliy hududlari kirgan. Yettisuv viloyati esa Semipalatinsk viloyatining Sergiopol, Kopal va Olatavsk okrugi yerlari va sobiq Turkiston viloyatining bir qismidan iborat holda tashkil qilindi. Bosib olingan hududlar hisobiga keyinchalik quyidagi ma'muriy-hududiy birliklar vujudga kelgan: 1868-yilda Buxoro amirligiga qarashli yerlarda Zarafshon okrugi (markazi Samarqand), 1873-yilda Xiva xonligiga qarashli hududlarda Amudaryo bo'limi (markazi — Petro-Aleksandrovsk; hozirgi To'rtko'l) va 1876-yilda Farg'ona viloyati (markazi Yangi Marg'ilon, keyinchalik Skobelev hozirgi Farg'onashaliri), 1881-yilda Kaspiyorti viloyati (markazi -Ashxobod **shahri**) tashkil qilingan.

Turkiston o'lkasidagi viloyatlarning hududlari katta bo'lgan. Ularning maydoni Rossiyaning ayrim markaziy guberniyalarining hududidan ham katta bo'lgan. Jumladan, o'lkadagi viloyatlarning hududiy jihatdan eng kichigi bo'lgan Samarqand viloyatining maydoni 2000 kv. verst (1 verst 1,066 km ga teng) bo'lib, u Saratov guberniyasidan, Sirdaryo viloyatining hududi esa Moskva guberniyasidan katta bo'lgan.

Turkiston general-gubernatori 1867-yilgi «Nizom» loyihasida ko'rsatilgan huquqlardan tashqari o'lkani boshqarish uchun mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda mustaqil faoliyat olib borishda katta huquqlarga ega bo'lgan.

Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasining boshqa guberniya boshliqlaridan farqli ravishda siyosiy, iqtisodiy, harbiy va geosiyosiy maqsadlarini amalga oshirishda K. P. Kaufmanga katta vakolatlar berilgan. Shuning uchun u xalq orasida «yarim podsho» nomini olgan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Darsning bu bosqichi quyidagi savol-topshiriqlar yozilgan kartochkalarni o'quvchilarga (guruhlariga) tarqatish orqali bajariladi:

1-topshiriq: “Guruhlarda ishlash” uchun savollar:

1. Turkiston viloyati nima uchun harbiy asosda tashkil qilingan?
2. Turkiston viloyati nima sababdan Turkiston general-gubernatorligiga ay-lantirildi?
3. Turkiston general-gubernatorining vakolatlari imperiyaning boshqa general -gubernatorlaridan qanday farq qilgan?

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

V. Dars yakunlarini chiqarish:



O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish;

Baholarni e'lon qilish.

O'quvchilar aytib o'tgan fikrlari to'planib tahlil va xulosa qilinadi va darsning eng so'nggi xulosasi chiqariladi

VI. Uyga vazifa:



Mavzu yuzasidan darslikda berilgan savollarga javob topish.

Krossvord tuzib kelish

Kelgusi darsda o'tiladigan mavzu bilan tanishib kelish, asosiy tushunchalarni eslab qolish, qo'shimcha manbalarni izlab topish.



Kelgusi yilda o'zgartirish kiritilsa yoki internetdan olingan yangiliklar bo'lsa yoziladi:



Qo'shimcha ma'lumot

Turkiston general-gubernatorlari (1867-1917-y.)

K.P. Kaufman	1867 1881-yillar
G.A.Kolpakovskiy	1881 1882-yillar
M.G.Chernyayev	1882-1884-yillar
N.O.Rozenbax	1884-1889-yillar
A.B.Vrevskiy	1889-1898-yillar
V.M.Duxovskoy	1898-1901-yillar
N.I. Ivanov	1901-1904-yillar
P.N.Tevyashov	1904-1905-yillar
D.I.Subbotich	1905-1906-yillar
N.I.Godekov	1906-1908-yillar
I.Meshchenko	1908-1909-yillar
A. V. Samsonov	1909 1913-yillar
N. Flug	1913 1915-yillar
F.Martson	1915 1916-yillar
A.N. Kuropatkin	1916 1917-yillar

K.Q. № ____

Turkiston general-gubernatorligining markaziy boshqaruvi

